

Ish o'rniga tanlov haqida e'lon

Germaniya Federativ Respublikasining Toshkentdagi elchixonasi Harbiy attashe stabiga xodim/xodimani imkon qadar tezroq ishga olish maqsadida tanlov e'lon qiladi.

Xodima/ xodimga yuklatiladigan vazifalar:

- murakkab harbiy-siyosiy/mudofaa mavzularidagi hujjatlar va xavfsizlik siyosatiga oid mavzulardagi hujjatlarni rus/o'zbek tillaridan nemis tiliga va aksincha tarjima qilish;
- harbiy attashe shtabi/delegatsiyalar xizmat safarlarida va rasmiy uchrashuvlar doirasida, ayrim hollarda protokol tadbirlarida rus/o'zbek tilidan nemis tiliga va aksincha tarjima qilish;
- axborot va tahliliy ko'rib chiqish maqsadida ma'lumotlar to'plash va tayyorlash (xatlar, press-relizlar, rus/o'zbek va nemis tillarida internetdagi ma'lumotlarni tanlash, to'plash va tayyorlash);
- rus/o'zbek va nemis tillarida telefon va elektron pochta orqali yozishmalarni amalga oshirish, shu jumladan majlislar bayonnomalarini tayyorlash;
- harbiy attashe shtabining yozma ko'rsatmalariga muvofiq rus/o'zbek va nemis tillarida xatlarni mustaqil ravishda tayyorlash;
- muhim masalalar va so'rovnomalar tuzish va ularning bajarilishi bo'yicha ish yuritish hamda ularni ma'lumotlar bazasiga qayta ko'rib chiqish maqsadida kiritish;
- mahalliy xizmat safarlarini rejalashtirish va tayyorlashda yordam berish;
- mamlakat havo hududidan foydalanishga ruxsat olishda ko'mak berish.

Tanlov ishtirokchisiga qo'yiladigan talablar:

- xushmuomalalik va siyosat sohasida ishlashga qiziqish;
- tahliliy qobiliyatlar;
- internetdan va ijtimoiy tarmoqlardan ishonchli foydalanish (ma'lumot izlash);
- ommaviy Microsoft Office dasturlaridan (Outlook, Word, Excel va boshqalar) foydalanish bo'yicha yuqori darajadagi kompyuter savodxonligi;
- til bilish darajasi: yozma va og'zaki nutqda nemis va rus tillarida erkin muloqot qilish (eng kamida B2 darajasida), o'zbek va ingliz tillarini yaxshi bilish (eng kamida B1 darajasida);
- haydovchilik guvohnomasi: B toifasi / yengil avtomobil boshqarish;
- jamoada ishlay olish qobiliyati

- puxtalik, aniqlik, o'z zimmasiga mas'uliyatni olib ishlash va katta miqdordagi ish hajmiga yuqori bardoshlik
- o'z nuqtai nazarni himoya qila olish va hamkorlar va muassasa vakillari bilan muloqot qila olish qobiliyati;
- muddatli harbiy xizmatni o'tagan bo'lish va/yoki O'zbekiston Qurolli Kuchlari yoki shunga o'xshash huquqni muhofaza qilish organlaridagi tuzilmalar va jarayonlarni bilish maqsadga muvofiq;
- xizmat safarlariga borishga tayyorlik.

Ish haqi mahalliy sharoitga va elchixonaning amaldagi ish haqi tizimiga muvofiq to'lanadi. Ish vaqti haftasiga 40 soatni tashkil qiladi. Uch oylik sinov muddati qo'llaniladi. O'zbekiston fuqaroligi bo'lmagan nomzodlarning doimiy yashash va ishlash uchun ruxsatnomasi bo'lishi talab etiladi.

Arizangizni nemis tilida quyidagi hujjatlar ilova qilingan holda yuborishingizni so'raymiz:

- **Motivatsion xat**
- **Tarjimai hol (resyume)**
- **Ma'lumotnomalar, diplomlar**
- **Tavsiyanomalar**

Arizalarni 2024 yil 26 aprelgacha quyidagi manzilga yuborishingizni so'raymiz:

Germaniya Federativ Respublikasi elchixonasining
- Verwaltung/ Stellenausschreibung Mil -
Sharof Rashidov ko'chasi 15
Toshkent 100017

yoki bewerbung@tasc.auswaertiges-amt.de elektron manzilga yuborishingiz mumkin.

Elchixona faqat to'liq va o'z vaqtida yuborilgan arizalarni ko'rib chiqishini e'tiborga olishingizni so'raymiz. Ariza qabul qilinganligi haqidagi tasdiq yuborilmaydi va ariza hujjatlari qaytarilmaydi.

Elchixona faqat suhbatga taklif qilingan arizachilar bilan bog'lanadi.

Germaniya Federal tashqi ishlar vazirligi ayollarni kasbiy malakasini ilgari surishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan va malakali ayollarni ariza topshirishga taklif qiladi.

Muvaffaqiyatli tanlovdan so'ng, ishga joylashishdan oldin elchixona bilan hamkorlik qiladigan shifokor tomonidan tibbiy ko'rikdan o'tish orqali nomzodning sog'ligi tarafidan yaroqliligi tasdiqlanishi kerak.

Shaxsiy/xavfsizlik tekshiruvi ham amalga oshiriladi. Sizdan ushbu tekshiruvdan o'tishga tayyor ekanligingiz talab etiladi.

Qisqa ro'yxatga kiritilgan nomzodlar tanlovning keyingi jarayoniga taklif qilinadi. Tanlovda ishtiroq etish uchun uzoqdan kelgan nomzodlarning yo'l sarf-xarajatlari qoplanmaydi.

Elchixona haqida qo'shimcha ma'lumotni www.taschkent.diplo.de sahifasidan olishingiz mumkin.

Yevropa Ittifoqining umumiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi reglamentning 13-moddasiga muvofiq ma'lumotlarni quyidagi manzilda topishingiz mumkin: <https://taschkent.diplo.de/uz-uz/datenschutz>